

---

## **ZIG'IR TOLASINI OLISH TEKNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI**

**Gulhayo Abdusattorovna Mirboboyeva**

*Farg'onan davlat texnika univeristeti*

*Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi katta o'qituvchisi*

[g.mirboboyeva@ferpi.uz](mailto:g.mirboboyeva@ferpi.uz)

**Turg'unov Azizbek Azimjon o'g'li**

*Farg'onan davlat texnika univeristeti*

*Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi assistenti*

[azizbekturgunov518@gmail.com](mailto:azizbekturgunov518@gmail.com)

**Annotasiya:** Ush bu ilmiy maqolada qadimda zig'ir tolalarini taylorlash bosqichlari,zig'irni pishib yetilishi,xosilni yig'ib olish jarayonlaridan keying bosqichlar namlantirish,tarash, tozalash, zichlash,tarash,yuvish-quritish,ip yigirish hamda mato xolatiga kelish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** zig'ir, tola, tanda, arqoq, iplar, namlantirish,tabiy va suniyy namlantirish,tarash,tozalash,zichlash,yuvish,quritish,yigirish.

Zig'ir tolasini kelib chiqishi insoniyatni qadimgi tarixiga borib taqaladi. Zig'ir o'simligi yovvoyi holda bo'lgan keyin xonakilashtirilgan Tolani hozirgi Gruziya Respublikasi hududida topilgan, u yerda 30 000 yil oldin yuqori paleolitga oid yigirilgan, bo'yalgan va tugunlangan yovvoyi zig'ir tolalari Dzudzuana g'orida topilgan. . Zig'ir birinchi marta Fertil Yarim oy mintaqasida xonakilashtirilgan.Bundan tashqari zig'ir qadimgi Yaqin Sharq, O'rta yer dengizi soxillarida Misr davlatida zig'ir o'simligi yetishtirilgan.Qadimda zig'ir toiasi tayyorlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, juda ko'p mehnat talab qilgan. Bu jarayon tabiiy tolani o'simlikdan ajratib olish va uni to'qimachilik uchun tayyorlashni o'z ichiga olgan. Zig'ir o'simligidan tola va moy olish uchun ekiladi.Poyasini uzunligi 60-120 smgacha guli och kulrang poyasi silliq gullah davri 5-6 kun Urug'larni ekishdan 2-3 oy oldin tozalash ishlov berish kerak.U bahorning o'rtalarida, yerni xavoni xarorati 7-8 ° S ga qadar qizib ketganda ekiladi.Ekish uchun optimal chuqurlik 2-3 sm [1].



1-rasm. Zig'ir o'simliklari  
Zig'ir o'simligini yig'ish jarayoni

Zig'ir o'simligini pishib yetilgach, uni qo'lda yoki oddiy asboblar yordamida yig'ib olishgan. Zig'ir povasining butun uzunligini saqlash muhim bo'lgan, chunki tolalar aynan poya ichida joylashgan. Zig'ir to'liq yetilgandan keyin yig'ib olinardi. Zig'ir povasi pishib yetilganda ildizidan yulib olinardi, chunki uni pichoq yoki boshqa asbob bilan kesish tolalarning sifatini buzishi mumkin bo'lgan. [2.]



2-rasm. Zig'ir o'simligi yig'ib olish

Bu jarayon asosan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan: 1. Yulish: Zig'ir o'simligi ildizi bilan birga tuproqdan yulib olinardi. Bu usul tolalarni uzun va mustaxkam saqlash uchun muhim bo'lgan.

### Tabiiy usulda namlantirish

Zig‘ir tolalarini ajratish uchun o‘simlik poyalarini namlanishi kerak bo‘lgan. Bu jarayon "suvalash(mochit)" deb atalgan. Zig‘ir poyalari namlanib, undagi pektin va boshqa bog‘lovchi moddalar parchalanib, tolalarning ajralishini osonlashtiradi. Shuning uchun zig‘irni nam yerlarga suv xavzalari , ko‘lmak yoki daryo bo‘ylariga yoyib qo‘yib suv yordamida xo‘llab namlantirilgan Yog‘ingarchilik va namlik ta’sirida tolalarni bog‘lab turgan moddalar parchalangan. Bu jarayon bir necha hafta davom etgan. [3]

Sun’iy namlantirish. Ba’zi hollarda zig‘ir poyalarini suv havzalarida yoki alohida tayyorlangan havzalarda namlashgan. Keyin zig‘irni o’tloq va yerlarga yoyib yotqizilgan, u yerda ular bir necha hafta davomida turgan.



**3-rasm** Zig‘ir o’simligini namlantirish jarayoni

#### Zig‘ir tarash va tozalash

Namlangan zig‘ir qurigandan keyin undan tolalarni ajratib olish jarayoni boshlanadi. Bu bosqich zig‘ir tolalarini poya va boshqa keraksiz qismlardan ajratishga qaratilgan. Qo‘lda tishli taroq xolidagi asboblar bo‘lgan.Bu asboblarga qurigan zig‘irni solib tortilganda o‘simlikni boshoqlari va oshiqcha xas cho‘plar tushib ketgan.



**4-rasm** Zig'ir o'simligini tozalash jarayoni.

Bu bosqichda zig'ir poyalari maxsus asboblar yordamida bukilib, yorilgan. Maqsad poya ichidagi tolalarni poya yog'ochidan ajratish bo'lgan. Asboblar, odatda, yog'ochdan yasalgan bo'lib, ular bilan zig'ir poyalarini bukib, sindirishgan [4].



**5-rasm** Zig'ir o'simligini sindirish jarayoni.

**Tarash jarayoni**

Tolalarni poyadan yaxshiroq ajratish uchun ularni tarashgan. Tarash uchun maxsus taroqlar yoki yog'och taroqlar ishlatilgan. Zig'irni tarab, eng uzun va sifatli tolalarni ajratib olganlar. Bu jarayon natijasida tolalar toza, yumshoq va mustahkam bo'lib qolgan[5].

**6-rasm** Zig'ir o'simligini tarash jarayoni.

Yuvish va quritish.Tolalar to‘liq ajratilgandan so‘ng, ularni yana bir bor suvda yuvishgan va quritishga qo‘yanlar. Qurigan tolalar endi to‘qimachilik uchun tayyor bo‘lgan.

Ip yigirish Qadimgi davrlarda zig‘ir tolalaridan ip yigirish jarayoni qo‘lda amalga oshirilgan. Maxsus yigiruv g‘ildiraklari (vereteno) yoki qo‘l yordamida tolalar bir-biriga o‘ralib, mustahkam ipga aylantirilgan. Zig‘ir tolasidan olingan iplar keyinchalik matolar to‘qishda yoki boshqa to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatilgan[6].

Matolar tayyorlash.Ajratilgan zig‘ir iplaridan matolar to‘qish odatda qo‘lda amalga oshirilgan. Ushbu matolar oddiy kiyimlardan tortib, murakkabroq uy jihozlarigacha keng qo‘llanilgan. Qadimgi Misr va Yevropa mamlakatlarida zig‘ir matolar katta e’tibor va talabga ega bo‘lgan.

Zig‘ir tolalarini taralish va tayyorlash qadimgi davrlarda jismoniy kuch va sabr talab qilgan jarayon bo‘lib, u ko‘p bosqichlardan iborat bo‘lgan. Barcha jarayonlar qo‘lda amalga oshirilgan va natijada sifatli, mustahkam zig‘ir tolsi olinib, undan uzoq muddatli matolar tayyorlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1]. Tursumatova Shaxlo Samiyevna, & Mamatqulova Saida Raxmatovna. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. Innovative Technologica: Methodical Research Journal,3(05),1–10.

[2].Raxmatovna.M.S.(2022). Analysis of women’s clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. International Journal of Advance Scientific Research.2(03).16-21.

[3].Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5,May,2022.7

[4]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men’s clothing. Innovative Technological:Methodical Research Journal,2(10),15-20.

[5].Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(9), 18-23.

[6]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).